

BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTI VA TURIZMINI KELAJAKDA RIVOJLANTIRISH

Bozorov Ilyos Isomiddinovich

TAFU “Tarmoqlar iqtisodiyoti va bug’galteriya” kafedrası v.b., dotsenti

E-mail: ilyosbozorov1986@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotning o’rni va iqtisodiy o’sishning bugungi kunda holati xizmat ko’rsatish hamda turizm faoliyatining rivojlanishi viloyatlarda ichki va tashi turizmni rivojlantirish ko’zda tutilgan. Bu esa ish o’rinlari, savdo aylanmasining ko’paytirish investitsiya oqimi va YaHM hamda YaIM o’sishini ta’minlaydi. Xizmat ko’rsatish sohalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: milliy daromad itisodiy o’sish, subsidiya innovatsiya tavar aylanmasi invistitsiya tavar aylanmasi, makroiqtisodiy barqarorlik, investor, Yalpi ichki maxsulot, Yalpi hududiy maxsulot, iqtisodiy resurslar, kapital.

KIRISH

Buxoro viloyati iqtisodiyoti va turizm salohiyatidan samarali foydalanish asosida barqaror rivojlanish tizimidan iborat. Kelajakda erishish lozim bo’lgan maqsadlarni shakllanishi o’zaro bir-biri bilan bog’liq to’rtta bosqichni tashkil qiladi.

1-bosqich. Mamlakat va viloyat darajasida iqtisodiyot va turizmni rivojlantirishning ustuvor maqsadlarini aniqlab olish.

2-bosqich. Mamlakat va viloyatda iqtisodiy o’sish darajasi, hamda iqtisodiy o’sishni ta’minlashda turizmni o’rnini belgilash bo’yicha maqsadlarni asoslash.

3-bosqich. Mamlakat va viloyatda iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan turizm bilan bog’liq tarmoqlarni rivojlantirish maqsadlarini aniqlash.

4-bosqich. Mamlakat va viloyatda turizm bilan bog’liq xizmatlarini rivojlantirish maqsadlarini asoslash.

O’zbekistonni kelajakda (2030 yil) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashda 2017-2021 yillarga mo’ljallangan Harakatlar strategiyasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning kelajakda mamlakatimizni rivojlanishining ustuvor yo’nalishlari bo’yicha bayon etgan nutqlari va takliflari, Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tayyorlangan mamlakatning 2030 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasidan foydalanildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning maqsadli ko’rsatkichlari³⁰⁷

Makroko’rsatkichlar	2017 yilda o’sish sur’ati, %	2017-2030 yillarda o’rta yillik usish, %	2017-2030 yillarda o’sish sur’ati, marta
Yalpi ichki mahsulot	5,3	7-8	2,5-2,7 %
Sanoat	7,0	8-10	3,0-3,2 %
Qishloq xo’jaligi	2,0	5-7	1,6-2,0 %
Xizmatlar	8,9	9-11	3,2-3,5 %

³⁰⁷ Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutiningprognoz ko’rsatkichlari, 2018 yil noyabr.

Iqtisodiyotimizni kelajakda rivojlantirishning asosiy maqsadi yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirib borish va aholi farovonligini ta'minlashdan iborat.

Makroiqtisodiy prognoz natijalariga ko'ra maqsadli ko'rsatkichlar 2017-2030 yillarda qo'yidagicha bo'lishi ko'zda tutilgan: yalpi ichki mahsulotning o'sishi 2,5-2,7 marta, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi 3,0-3,2 marta, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi 1,5-2,0 marta, xizmatlar hajmini o'sishi 3,2-3,5 marta.

O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan bir qator rasmiy hujjatlar mavjud. Ular qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohani rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3217-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasida turizm tarmog'ini o'rta muddatli kelajakda rivojlantirish konsepsiya loyihasi (may, 2017yil) matbuotda e'lon qilingan. Konsepsiyaga muvofiq 2017-2021yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning aniq maqsadlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu maqsadlar qo'yidagilardan iborat:

- mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i bo'lmish turizmni barqaror va samarali rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish;

- turizm xizmatlari bozorida mutanosiblikka erishish uchun tashqi va ichki turizmni ustuvor rivojlantirish;

- mintaqalarni kompleks rivojlantirish, turizmni yalpi ichki mahsulotdagi, mahalliy va davlat byudjeti daromadlaridagi ulushini oshirish, yangi ish joylarini tashkil qilish va aholi farovonligini yuksaltirishda turizmni o'rnini yanada yuqoriga ko'tarish;

- sayyohlik xizmatlarni tashkil qilishda sayyohlarning xavfsizligi va salomatligini ta'minlash;

- turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirishda mamlakatning boy salohiyatidan fydalanish va hozirgi zamon turizm kompleksini tashkil qilish;

- O'zbekiston Respublikasini turizm uchun qulay mamlakat sifatida tasavvur qilishlari uchun sharoit yaratish.

O'zbekiston davlat turizm qo'mitasi ishlab chiqqan konsepsiyada O'zbekiston Respublikasida 2019-2025 yillarda turizm rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Ular turizm faoliyatini qulay qonuniy va me'yoriy asoslarini takomillashtirish; jahon standartlariga va sayyohlarni talab va ehtiyojlariga javob beradigan infratuzilmani shakllantirish, barcha mintaqalarda turizm industriyasini rivojlantirish; turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish; respublikada sayyohlik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida ijtimoiy yo'naltirilgan turizmni rivojlantirish; turizm sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish; O'zbekiston Respublikasi sayyohlik mahsulotini halqaro va ichki turizm bozorlariga olib kirishni ta'minlash; turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni qayta tayyorlashni tashkil qilish.

Konsepsiyada yaqin kelajakda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan chora-tadbirlar va investitsiyasi loyihalar keltirilgan (ilova-2). Jumladan Buxoro viloyatida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator loyihalar ko'rsatib o'tilgan. Ular qatoriga Peshku tumanidagi Afshona qishlog'ida Xalq tibbiyoti kompleksini tashkil qilish (muzey, kutubxona, Ibn-Sino maktabi), Buxoro shahrida hunarmandlar markazini qurish (42 turdagi hunarmandchilik ustaxonalari va gilam to'qish muzeyini tashkil qilish), 2020 yilda Abu Ali ibn Sino tavallud topganini 1040 yilligi munosabati bilan Xalqaro madaniy tadbir o'tkazish, yangi havo yo'llari marshrutlarini tashkil qilish (Buxoro-Namangan, Buxoro-Farg'ona) va boshqalar (2-jadvalga qarang).

Umuman olganda konsepsiyada 2019-2025 yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi loyihasida maqsadli ko'rsatkichlari keltirilgan. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qo'yidagi so'zlarini keltirish lozim: "...2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqishi va ijrosini ta'minlashi zarur. SHu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga etkazish lozim"³⁰⁸.

³⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –"Xalq so'zi" gazetasining 2018 yil 29 dekabrda soni.

O‘zbekistonda turizm tarmog‘ini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari^{309*}

Asosiy ko‘rsatkichlar	2017 yil	2021 yil	2025yil*	2030yil*	2030yil 2017yilga nisbatan
Xorijiy sayyohlar soni, mln.kishi	4,0	6,0	7,2	15,0	3,8 marta
Mehmonxonalar va boshqa joylashuv manbalari, birlik	816,0	1120,0	1600,5	3100,0	3,8 marta
Ichki sayyohlar soni, birlik	10,56	14,0	18,95	30,0	2,8 marta
Sayyohlik xizmatlar eksporti, mln.doll.	546,9	1120,0	2230,0	5000,0	9,1 marta

Ularni tizimli tahlil qilish va jarayonlarni rivojlanish tendensiyalarini e‘tiborga olgan holda O‘zbekistonda turizmni 2030 yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari taklif etildi.

Asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar qatoriga mamlakatimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarning soni kiradi. Mavjud boy salohiyatdan samarali va unumli foydalanilgan holda ularning sonini 2030 yilga kelib 15,0 mln. kishiga etkazish imkoni mavjud bo‘lib, 2017-2030 yillarda xorijiy sayyohlarni sonini kamida 3,8 martaga ko‘paytirish mumkin (Hozirda, 2017 yil ma‘lumotlariga ko‘ra mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning soni 2,0 mln. kishiga etgan). Turizm sohasiga berilgan e‘tibor natijasida mamlakatimizga keladigan sayyohlar soni 2018 yilda ikki martaga oshib 3 mln. 300 mingga etdi.

Hisoblarga ko‘ra halqaro va ichki turizm sayyohlari sonini ko‘payishi o‘z navbatida ular istiqomat qiladigan mehmonlar va boshqa joylashuv ob‘ektlari quvvatlarini keskin oshirishni talab qiladi. 2017-2030 yillarda ularning soni deyarli 4,0 marta oshishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz va mintaqalarda turizmni rivojlantirishning asosiy natijalaridan, bu eksport imkoniyatlarini ko‘payishidan iborat. Maqsadli ko‘rsatkichlarga muvofiq eksport hajmi 2017-2030 yillar davomida 9,1 marta oshishi mo‘ljallanmagan bo‘lib, 2030 yilda uning miqdori 5,0 mlrd. dollarni tashkil etishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan mamlakatimiz iqtisodiyotini va turizmni rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari Buxoro viloyatini kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Buxoro viloyatida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan bir qator hududlar va tarmoqlar kesimida maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 maydagi 287-sonli qarori bilan 2017-2018 yillarda Buxoro viloyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan. SHuningdek, mamlakatimiz Prezidentining Buxoro viloyatiga tashriflari doirasida bir qator yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish, shaharlar va tumanlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Mavjud dasturlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni, shuningdek Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma‘lumotlarini umumlashtirilgan holda muallif tomonidan Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining maqsadli ko‘rsatkichlari aniqlangan (3.3-jadvalga qarang).

Viloyatni rivojlantirishning asosiy maqsadli natijasi iqtisodiyotni barqaror yuqori sur‘atlar bilan o‘shishini ta‘minlash. Bunday natijaga erishish uchun asosiy o‘shish nuqtasiva etakchi tarmoqsifatida turizm belgilangan. 2017-2030 yillarda Buxoro viloyatini asosiy makroko‘rsatkichlarining o‘shishi qo‘yidagicha bo‘lib, ular mamlakat ko‘rsatkilaridan yuqoridir. YAAlpi hududiy mahsulotning o‘shish

³⁰⁹O‘zbekiston Respublikasi turizm davlat qo‘mitasi ma‘lumotlari.

sur'ati 2030 yilda 8-9 foizni, sanoat mahsulotlari 9-10 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 6,0-7,0 foizni, savdo 8-10 foizni, xizmatlarni 10-12 foizga erishishi mo'ljalangan.

3-jadval.

Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining maqsadli ko'rsatkichlari (o'sish sur'atlari, %) ³¹⁰

Ko'rsatkichlar	2017 yil	2021 yil	2025 yil	2030 yil	2030yil 2017yilga nisbatan
Yalpi hududiy mahsulot	3,6	6-7	7-8	8-9	5,4 f.p
Sanoat mahsulotlari	0,8	7-8	8-9	9-10	9,2 f.p
Qishloq xo'jaligi	1,6	4-5	5-6	6-7	5,4 f.p
Savdo	0,4	3-5	7-8	8-10	9,6 f.p
Xizmatlar	3,6	4-6	8-9	10-12	8,4 f.p

Kelajakda viloyatni yuqori sur'atda iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadni amalga oshirish uchun mavjud boy tabiiy xomashyo, ishlab chiqarish, mehnat va turizm salohiyatidan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Iqtisodiyot tarkibini yanada takomillashtirish, sanoat va xizmatlarning ulushini keskin oshirish, ularni nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lishi hisobiga erishish mumkin. 2030 yilga kelib sanoatni yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini 25 foizga (2017 yilda 18,4 foiz); xizmatlarning ulushini esa deyarli 50 foizga (2017 yilda 36,7 foiz) etkazish rejali maqsadlar qatoriga kiradi.

Viloyatda sanoatni barqaror rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Kelajakda sanoat salohiyatining asosiy qismi neft va gazni qayta ishlash, engil, shu jumladan to'qimachilik klasteri, oziq-ovqat ishlab chiqarishiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 maydagi 287-sonli qaroriga muvofiq, faqatgina 2017-2018 yillarda Buxoro viloyatida sanoatni rivojlantirish maqsadida 907ta loyiha amalga oshirilishi mo'ljallangan, shulardan 223ta loyiha oziq-ovqat sanoatiga, 172 ta -to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoatiga, 357ta - qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri keladi. Xizmatlar sohasida asosiy e'tibor transport (210 loyiha), yashash va ovqatlanish (139ta loyiha), savdo (787ta loyiha), aloqa va axborotlashtirish (24ta loyiha), moliya (22ta loyiha), sog'liqni saqlash (63ta loyiha) xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ulushini oshirish, cheklangan er va suv resurslaridan oqilona foydalanish, xomashyoni sanoat usulida qayta ishlash darajasini yanada ko'tarish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, sug'oriladigan er maydonlari tarkibida bog'dorchilik, sabzavotchilik, uzumchilik, em-xashak ekinlari ulushini oshirish, chorvachilikni yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadli dasturlar va investitsion loyihalarni amalga oshirish mo'ljallangan. Yaqin kelajakda chorvachilik bo'yicha 560 ta, bog'dorchilikda 358ta, baliqchilikda 157 ta, parandachilikda 108 ta, sabzavotchilikda 149 ta, uzumchilikda 115 ta loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Ustuvor yo'nalishlar qatoriga yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilma tizimini takomillashtirishni kiritish mumkin. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha Toshkent-Samarqand-Buxoro-Urganch-Xiva sayyohlik poezdi harakatini yo'lga qo'yish, Buxoro-Miskin temir yo'lini elektrlashtirish, Buxoro-Navoiy va Vobkent-SHofirkon avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash va boshqa investitsion loyihalarni amalga oshirish mo'ljalangan. Ijtimoiy sohada aholi ehtiyojlaridan

³¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 майдаги “2017-2018 йилларда Бухоро вилоятини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги 287-сонли Қарори маълумотлари ва муаллиф ҳисоблаган вилоятни ривожлантиришни мақсадли кўрсаткичлари.

kelib chiqib yangi uy joylarni, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport ob'ektlarini qurish rejalashtirilgan.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 maydagi "2017-2018 yillarda Buxoro viloyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 287-sonli Qarori ma'lumotlari va muallif hisoblagan viloyatni rivojlantirishni maqsadli ko'rsatkichlari.
2. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3270-son Qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son
4. O'zbekiston Respublikasi turizm davlat qo'mitasi ma'lumotlari.